Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	
"O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar"	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	



Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari.....	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Irismatovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun'iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to'siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No'monjon Isroilovich	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O'tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko'rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuritdinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O'zbekistonda hayot sug'urtasining joriy etilishi va unga ta'sir etuvchi demografik omillar ta'siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o'zgarishining turizm sektoriga ta'siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o'zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta'siri	1439
Baratov Sa'dulla Norjigit o'g'li, Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta'minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o'g'li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	



Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	



Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	



Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turopova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	



AGLOMERATSIYALAR EKOLOGIK BARQARORLIGI: KOREYA RESPUBLIKASI TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA UNI QO'LLASH IMKONIYATLARI



Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov

TDSHU doktoranti va TMII assistenti

m.shokhrukh@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-2722-3231>

Annotatsiya: Ushbu maqolada aglomeratsiyalarning ekologik barqarorligi masalasi Koreya Respublikasi tajribasi misolida o'rganilgan. Unda Koreya aglomeratsiyalarida ekologik muammolarni hal etishda qo'llanilgan innovatsion yondashuvlar, "yashil shahar" konsepsiyasi va ekologik siyosat mexanizmlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, O'zbekiston aglomeratsiyalarining ekologik holati baholab chiqilib, Janubiy Koreya tajribasini milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun kompleks strategik choralar hamda institutsional islohotlar amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: aglomeratsiya, ekologik barqarorlik, "yashil shahar", urbanizatsiya, Janubiy Koreya, ekologik siyosat, O'zbekiston, shaharsozlik, "aqlli shahar".

Abstract: This article explores the issue of ecological sustainability in agglomerations using the experience of the Republic of Korea as a case study. It analyzes innovative approaches applied in Korean agglomerations to resolve environmental challenges, including the "green city" concept and environmental policy mechanisms. The ecological condition of Uzbekistan's agglomerations is assessed, and the feasibility of adapting South Korean practices to Uzbekistan's context is examined. Based on the research findings, the study proposes comprehensive strategic measures and institutional reforms to enhance ecological sustainability across Uzbekistan's agglomerations.

Key words: agglomeration, ecological sustainability, "green city," urbanization, South Korea, environmental policy, Uzbekistan, urban planning, "smart city".

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема экологической устойчивости агломераций на примере опыта Республики Корея. Проанализированы инновационные подходы, применяемые для решения экологических проблем в корейских агломерациях, концепция «зелёного города» и механизмы экологической политики. Также дана оценка экологического состояния агломераций Узбекистана и рассмотрены возможности адаптации южнокорейского опыта к национальным условиям. По результатам исследования предложены комплексные стратегические меры и институциональные реформы, направленные на обеспечение экологической устойчивости агломераций в Узбекистане.

Ключевые слова: агломерация, экологическая устойчивость, «зелёный город», урбанизация, Южная Корея, экологическая политика, Узбекистан, градостроительство, «умный город».

KIRISH

Zamonaviy sharoitda urbanizatsiya jarayonlari tezlashib, shahar aglomeratsiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga kelib dunyo aholisining 68 foizidan ortig'i shaharlarda istiqomat qilishi kutilmoqda (UN DESA, 2023). Shahar aglomeratsiyalari rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklari bilan bir qatorda, atrof-muhitga, resurslarga va iqlim o'zgarishiga ta'siri kabi ekologik muammolar



ham kuchaymoqda. Shuning uchun aglomeratsiyalarning ekologik barqarorligini ta'minlash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar doirasida shaharlar va aglomeratsiyalarni barqaror rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-son Farmoni hamda 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasida shahar aglomeratsiyalarini kompleks rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Aglomeratsiyalarning ekologik barqarorligini ta'minlashda xalqaro tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, Janubiy Koreya tajribasi alohida o'rganildi, chunki bu mamlakat qisqa vaqt ichida urbanizatsiyaning yuqori darajasiga erishgan holda ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida sezilarli natijalarga erishgan.

TADQIQOT MAQSADI

Koreya Respublikasi aglomeratsiyalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash tajribasini o'rganish va ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash.

TADQIQOT VAZIFALARI:

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha strategiya, dastur va mexanizmlarni o'rganish;

O'zbekiston aglomeratsiyalarining ekologik holatini baholash;

Koreya tajribasining O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan modelini ishlab chiqish va tavsiyalar tayyorlash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan: Ilmiy adabiyotlar tahlili - Janubiy Koreya va O'zbekistondagi aglomeratsiyalarning ekologik barqarorligi masalasiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va boshqa nashrlar o'rganildi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish - Janubiy Koreya va O'zbekiston statistika tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari (BMT, Jahon banki, OECD) va boshqa statistik manbalar o'rganildi va tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil metodi - Janubiy Koreya va O'zbekiston aglomeratsiyalarining ekologik holati, institutsional tuzilmasi, huquqiy-me'yoriy bazasi va amaliy tajribasini qiyosiy o'rganish amalga oshirildi. Case-study metodi - Seoul, Incheon, Busan va boshqa Janubiy Koreya aglomeratsiyalarining ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tajribasi alohida holatlar sifatida o'rganildi. Ekspert baholash metodi - O'zbekiston aglomeratsiyalarining ekologik muammolari va ularni hal etish yo'llari bo'yicha sohaga oid ekspertlar bilan suhbatlar o'tkazildi va ularning fikrlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Janubiy Koreya 1960-1990 yillarda jadal industrializatsiya va urbanizatsiya jarayonlarini boshdan kechirgan. Bu jarayonlar natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni hal etish uchun mamlakat hukumati 1990-yillardan boshlab ekologik barqarorlikka qaratilgan qator islohotlarni amalga oshirdi. Hozirgi kunda Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun ko'p darajali boshqaruv tizimi shakllangan. Markaziy hukumat darajasida Atrof-muhit vazirligi ekologik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtiradi. Regional va mahalliy darajada esa maxsus ekologik boshqaruv organlari faoliyat ko'rsatadi.

Janubiy Koreyada ekologik boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyati - turli manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokini ta'minlashga qaratilganligidir. Masalan, Seoul shahrida 2012-yilda tashkil etilgan "One Less Nuclear Power Plant" dasturi doirasida fuqarolar, nodavlat tashkilotlar va biznes vakillari bilan hamkorlikda qarorlar qabul qilinadi (Seoul Metropolitan Government, 2022).

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida "yashil shahar" konsepsiyasi keng joriy etilmoqda. Bu konsepsiya quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Seoul metropoliten hududida "Seoul Forest" loyihasi doirasida 2005-yildan buyon 500 gektardan ortiq yangi yashil maydonlar barpo etildi. Bu loyiha orqali shaharda harorat 3°C ga pasayishi, changlar miqdori 35% ga kamayishi kuzatilgan (Kim va Park, 2022).



2003-2005 yillarda amalga oshirilgan Cheonggyecheon daryosini tiklash loyihasi jahonga mashhur misol bo'lib, avvalgi transport magistrali o'rnida 5,8 km uzunlikdagi tabiiy daryo ekotizimi qayta tiklangan. Loyiha natijasida biodiversitet 639% ga ortgan va atrofdagi hududda harorat 3,3°C ga pasaygan (Hwang, 2017).

2020-yildan boshlab Janubiy Koreyada yangi quriladigan barcha davlat binolari va 60%dan ortiq xususiy binolar “yashil bino” standartlariga mos kelishi shart qilib qo'yilgan. Bu standartlar energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish kabi talablarni o'z ichiga oladi.

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida transport tizimining ekologik barqarorligini ta'minlash bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Seoul metropoliten hududida 2023-yil holatiga ko'ra, metro uzunligi 400 km.dan ortiq bo'lib, kunlik yo'lovchilar soni 7 milliondan oshgan. Shuningdek, avtobus tarmog'i ham keng rivojlangan bo'lib, elektr avtobuslar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

2020-yilda Janubiy Koreya hukumati elektromobillarni xarid qilish uchun har bir transport vositasiga 8000 AQSh dollari miqdorida subsidiya ajratish dasturini e'lon qildi. Natijada 2022 yilning oxiriga kelib elektromobillar soni 500 mingdan oshdi (KEITI, 2023).

Seoul va boshqa yirik shaharlarda velosiped yo'laklari tarmog'i jadal sur'atlarda kengaytirilmoqda. 2023 yilga kelib, faqat Seoul shahrining o'zida velosiped yo'laklari 2500 km.dan oshdi, shahar markazida velosiped ijarasi tizimi joriy etilgan.

1-jadval. Koreya Respublikasi va O'zbekiston aglomeratsiyalari ekologik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili (2023-yil).

Ko'rsatkich	Seoul (Janubiy Koreya)	Toshkent (O'zbekiston)
Aholi jon boshiga CO ₂ emissiyasi (tonna/yil)	5.8	4.2
Yashil maydonlar ulushi (%)	30.1	6.8
Chiqindilarni qayta ishlash darajasi (%)	68	8
Jamoat transportidan foydalanish ulushi (%)	65	35
Ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi (%)	99.9	98.5
Oqava suvlarni tozalash darajasi (%)	98	45
Qayta tiklanadigan energiya ulushi (%)	16	3

Manba: Janubiy Koreya Ekologiya vazirligi (2023), O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi (2023), muallif tomonidan tuzilgan.

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida chiqindilarni boshqarish va “doiraviy iqtisodiyot” konsepsiyasini joriy etish bo'yicha ilg'or tajriba to'plangan:

Volume-based waste fee system (VBWF). Bu tizim 1995-yilda joriy etilgan bo'lib, chiqindilar hajmiga qarab to'lov undirish prinsipi asosida ishlaydi. Tizim joriy etilgandan so'ng maishiy chiqindilar hajmi 30% ga kamaygan va qayta ishlash darajasi 20%dan 60%gacha ko'tarilgan (1-jadval).

Resource Circulation Act. 2016-yilda qabul qilingan ushbu qonun ishlab chiqaruvchilarni mahsulotni butun hayot sikli davomida ekologik jihatdan mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Qonun doirasida 2023 yilga kelib, plast o'ramlar miqdori 50% ga kamaygan (Min et al., 2023).

Smart waste management. Seoul, Incheon va boshqa yirik shaharlarda “aqlli chiqindi qutilari” o'rnatilgan bo'lib, ular chiqindilar to'lishini monitoring qiladi va chiqindilarni yig'ish jarayonini optimallashtiradi. Bu tizim chiqindilarni yig'ish uchun transport harakatini 30%ga kamaytirishga imkon bergan.

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun “aqlli shahar” texnologiyalari keng qo'llanilmoqda:

Incheon aglomeratsiyasida joylashgan Songdo shahri dunyoda eng ilg'or “aqlli shaharlardan” biri hisoblanadi. Bu yerda chiqindilar pnevmatik quvurlar orqali avtomatik ravishda yig'iladi, binolar energiya samaradorligi monitoringi tizimlari bilan jihozlangan, yomg'ir suvini yig'ish va qayta ishlash tizimlari joriy etilgan.

Seoul va boshqa yirik shaharlarda “aqlli elektr tarmoqlari” joriy etilgan bo'lib, ular energiya iste'molini optimallashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini integratsiyalash va elektr ta'minoti ishonchligini oshirishga imkon beradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, urbanizatsiya jarayonlari tezlashib, shahar aglomeratsiyalari rivojlana boshladi. 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisining 51% dan ortig'i shaharlarda istiqomat qilmoqda (O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi, 2023). Bugungi kunda O'zbekistonda Toshkent, Samarqand, Farg'ona-Marg'ilon, Namangan, Andijon, Buxoro va boshqa aglomeratsiyalar shakllanib, rivojlanmoqda.



O'zbekiston aglomeratsiyalarining ekologik holati quyidagi asosiy muammolar bilan tavsiflanadi:

O'zbekiston aglomeratsiyalarida atmosfera havosining ifloslanishi jiddiy muammo hisoblanadi. Toshkent aglomeratsiyasida 2022-yil davomida havoda chang zarrachalari (PM2.5) konsentratsiyasi 47.2 µg/m³ ni tashkil etdi, bu Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti standartlaridan (10 µg/m³) deyarli 5 barobar yuqori (O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, 2023).

Havo ifloslanishining asosiy manbalari:

Transport vositalari chiqarilmalari (umumiy ifloslanishning 60% dan ortig'i)

Sanoat korxonalari

Kommunal-maishiy sektor (isitish tizimlari)

Qurilish ishlari

O'zbekiston aglomeratsiyalarida suv resurslarining ifloslanishi va defitsiti dolzarb muammo hisoblanadi. Shaharlarda oqava suvlarni tozalash tizimlari eskirgan va to'liq quvvat bilan ishlamaydi. 2023 yil holatiga ko'ra, O'zbekiston shaharlari va aglomeratsiyalarida oqava suvlarning atigi 45% i to'liq biologik tozalanishdan o'tadi (O'zbekiston Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, 2023).

O'zbekiston aglomeratsiyalarida qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimi hali yetarli darajada rivojlanmagan. 2023 yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarning atigi 8% i qayta ishlanadi, qolgan qismi esa poligonlarda ko'miladi (O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, 2023).

2-jadval. O'zbekiston aglomeratsiyalarida ekologik ko'rsatkichlarning dinamikasi (2018-2023).

Ko'rsatkich	2018	2020	2023	O'zgarish (%)
PM2.5 konsentratsiyasi, µg/m³ (Toshkent)	54.6	50.8	47.2	-13.6
Yashil maydonlar ulushi, % (Toshkent)	5.9	6.3	6.8	+15.3
Chiqindilarni qayta ishlash darajasi, %	3	5	8	+166.7
Jamoat transportidan foydalanish ulushi, %	31	33	35	+12.9
Oqava suvlarni tozalash darajasi, %	38	41	45	+18.4
Qayta tiklanadigan energiya ulushi, %	1.2	2.1	3.0	+150.0

Manba: O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi (2023), O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (2023), muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston aglomeratsiyalarida yashil maydonlar ulushi xalqaro standartlardan sezilarli darajada pastdir. Masalan, Toshkent shahrida yashil maydonlar ulushi 6.8% ni tashkil etadi (O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, 2023), bu Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan minimal ko'rsatkichdan (9%) past (2-jadval).

O'zbekiston aglomeratsiyalarida shaxsiy avtomobillardan foydalanish ulushi yuqori bo'lib, bu atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy omillardan biridir. 2023 yil holatiga ko'ra, Toshkent shahrida kundalik sayohatlarning atigi 35% i jamoat transportida amalga oshiriladi (O'zbekiston transport vazirligi, 2023).

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tajribani o'rganish asosida, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

Institutsional mexanizmlarni takomillashtirish:

Agglomeratsiyalar darajasida ekologik boshqaruv bo'yicha maxsus organlar tashkil etish

Ekologik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda manfaatdor tomonlar (davlat, biznes, fuqarolik jamiyati) o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish

Qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish uchun raqamli platformalar yaratish

"Yashil shahar" konsepsiyasini joriy etish:

Agglomeratsiyalarda yashil maydonlar ulushini oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish
Daryolar va suv havzalarini tiklash loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish (masalan, Toshkent shahridagi Anhor, Bo'zsuv kanallari)

"Yashil qurilish" standartlarini ishlab chiqish va joriy etish

Transport tizimini ekologizatsiyalash:

Jamoat transportini rivojlantirish va uni ekologizatsiyalash (elektr avtobuslar, tramvaylar)

Velosiped infratuzilmasini rivojlantirish va piyodalar uchun qulay sharoitlarni yaratish

Elektromobillarni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqish



Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish:

Chiqindilar hajmiga qarab to'lov undirish tizimini (VBWF) joriy etish

Chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish

“Doiraviy iqtisodiyot” prinsiplarini joriy etish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish

“Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish:

Yangi qurilayotgan shahar hududlarida “aqlli shahar” texnologiyalarini kompleks joriy etish (masalan, “Toshkent City”, “Yangi O'zbekiston” massivlari)

Energiya samaradorligini oshirish uchun “aqlli tarmoqlar” texnologiyalarini joriy etish.

Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar orqali O'zbekiston aglomeratsiyalarini ekologik jihatda toza shaharlar va satelitlar asosida yoratish va rivojlantirish imkoniyatini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash tajribasini o'rganish va ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha kompleks yondashuv qo'llaniladi, bu yondashuv institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, “yashil shahar” konsepsiyasini joriy etish, transport tizimini ekologizatsiyalash, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va “aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston aglomeratsiyalarida ekologik muammolar mavjud bo'lib, ular atmosfera havosi ifloslanishi, suv resurslarining ifloslanishi va defitsiti, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish muammolari, yashil maydonlarning yetishmasligi va jamoat transportining rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Janubiy Koreya tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash uchun institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, “yashil shahar” konsepsiyasini joriy etish, transport tizimini ekologizatsiyalash, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va “aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Janubiy Koreya tajribasini O'zbekiston aglomeratsiyalarida qo'llash imkoniyatlarini baholash natijasida qisqa, o'rta va uzoq muddatli chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan kompleks strategiya taklif etildi.

Janubiy Koreya aglomeratsiyalarining ekologik barqarorlikni ta'minlash tajribasini O'zbekiston sharoitida to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib bo'lmaydi, balki uni mahalliy sharoitga moslashtirish zarur. Bu jarayonda milliy xususiyatlar, institutsional, iqtisodiy va madaniy omillar inobatga olinishi kerak. Shu bilan birga, Janubiy Koreya tajribasidan samarali foydalanish O'zbekiston aglomeratsiyalarining ekologik barqarorligini ta'minlashga, shahar muhitining sifatini yaxshilashga va aholining hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmedov, A. (2022). O'zbekistonda barqaror shaharlar konsepsiyasini joriy etish istiqbollari. O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyot jurnali, 4(2), 67-82.
2. Choi, J. K., & Park, S. H. (2021). Evolution of Environmental Policy and Green Growth Strategy in Korea. Journal of Environmental Policy & Planning, 23(2), 175-188.
3. Han, H., & Kim, B. (2023). Smart Urban Environmental Management: Lessons from Korea's Smart City Projects. Journal of Urban Technology, 30(1), 67-84.
4. Hwang, K. S. (2017). Cheonggyecheon Restoration and Urban Development. Seoul: Seoul Development Institute.
5. Karimov, B., & Saidov, M. (2023). O'zbekiston aglomeratsiyalarining ekologik holati: muammolar va ularni hal etish yo'llari. Shaharlar ekologiyasi jurnali, 5(3), 45-61.
6. KEITI (Korea Environmental Industry & Technology Institute). (2023). Annual Report on Electric Vehicle Promotion. Seoul: KEITI Press.
7. Kim, J. H., & Park, Y. H. (2022). Urban Greening and Its Impact on Mitigating Urban Heat Island Effect: The Case of Seoul Forest. Urban Forestry & Urban Greening, 75, 127648.
8. Lee, M., & Park, J. (2021). The Success of Volume-Based Waste Fee System in Korea: An Assessment after 25 Years. Journal of Cleaner Production, 301, 126954.
9. Min, D. K., Rhee, S. W., & Jang, Y. C. (2023). Implementation of the Resource Circulation Act and its impact on plastic packaging waste reduction in Korea. Waste Management, 158, 74-83.
10. O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. Toshkent.
11. O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi. (2023). O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida milliy ma'ruza. Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 yanvardagi “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6386-son Farmoni.
13. O'zbekiston transport vazirligi. (2023). Shahar transportini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
14. O'zbekiston Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi. (2023). Oqava suvlarni tozalash tizimlari holati to'g'risida hisobot. Toshkent.



15. Rasulov, X., & Axmedova, D. (2022). Barqaror shahar rivojlanishini ta'minlashda "yashil infratuzilma" konsepsiyasi. O'zbekiston arxitektura va qurilish jurnali, 12(3), 98-112.
16. Seoul Metropolitan Government. (2022). One Less Nuclear Power Plant 2.0. Seoul: Seoul Metropolitan Government Publications.
17. UN DESA (United Nations Department of Economic and Social Affairs). (2023). World Urbanization Prospects: The 2023 Revision. New York: United Nations.
18. Yoon, S. W., & Kim, H. S. (2023). Urban Regeneration and Ecological Restoration in Korean Cities: Policies, Practices, and Challenges. Urban Studies, 60(5), 947-962.
19. Zang, R., & Park, K. (2022). Green Building Policies and Their Implementation in South Korea. Energy Policy, 164, 112883.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
